

**ISHLAB CHIQRISHDA BAXTSIZ HODISALAR VA KASB KASALLIKLARI  
BO‘YICHA YETKAZILGAN ZARARNI TO‘LASH TARTIBI****Yarashova Gulnoza**

Toshkent davlat Yuridik universiteti magistranti

+998934619907

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi natijasida xodimda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yuz bergan taqdirda xarajatlarni kompensatsiya qilish” -deb nomlangan 291-moddasiga ko‘ra, agar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi natijasida yuz bersa, ish beruvchi xodimga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini to‘lash bilan birga uning tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya uchun qilgan xarajatlarining o‘rnini tegishli hujjatlar (cheklar, ma’lumotnomalar va boshqalar) bilan tasdiqlangan, haqiqatda qilingan xarajatlar miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda qoplaydi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari majburiy ravishda tekshirilishi va hisobga olib borilishi lozimligi belgilangan. Bundan tashqari, ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini o‘z vaqtida tekshirishi hamda hisobga olishi shart. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va kasb kasalliklarini tekshirish hamda hisobga olish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Yuqori o‘rinlarda ham ta’kidlanganidek, Vazirlar Mahkamasining “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori bilan tasdiqlangan nizomga o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, baxtsiz hodisa natijasida xodimning mehnat qobiliyati kamida bir kunga yo‘qotilsa yoki tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq boshqa ishga o‘tishi zarur bo‘lsa, N-1 shaklidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtirilish tartibi belgilangan.

Ushbu Nizomning 6-qismiga muvofiq, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida tekshirish va hisobga olishni, shuningdek, baxtsiz hodisa kelib chiqishi sabablarini bartaraf etishga oid chora-tadbirlarning bajarilishini korxonaning yuqori turuvchi xo‘jalik organi, kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha davlat texnik inspektori, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi xavfli ishlab chiqarish obyektlarida, radiatsiyaviy xavfli obyektlarda va atom energiyasidan foydalanish obyektlarida va O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energetikada nazorat inspeksiya (“O‘zenergoinspeksiya”) energetika obyektlari va iste‘molchilarning elektr qurilmalarida nazorat qiladi.<sup>1</sup>

Shuningdek, fuqarolarning ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasiga bo‘lgan huquqlarini qonunda belgilab qo‘yish orqali ularning ijtimoiy himoyasini amalga oshirish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasb kasalligi oqibatida xodimning hayoti hamda sog‘lig‘iga zarar yetkazilganligi munosabati bilan sug‘urta to‘lovi to‘lanishini ta’minlash, mehnatni muhofaza qilish holatini va mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarning sog‘lig‘ini saqlash maqsadida yana bir O‘zbekiston Respublikasining “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy

<sup>1</sup> Vazirlar Mahkamasining “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. 06.06.1997 yildagi 286-son *Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 31.12.2018-y., 09/18/1066/2428-son)

davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida" gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, ushbu Qonun, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risidagi qonunchilikdan va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Qonundagi ba'zi tushunchalarga to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Ushbu Qonunda "sug'urtalovchi" bu O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, "sug'urtalangan shaxs"- mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida ishlaydigan, sug'urta qildiruvchi sug'urtalovchiga shu shartnomaga (kontraktga) muvofiq sug'urta badallarini to'laydigan, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi qilinishi lozim bo'lgan jismoniy shaxs, "sug'urta qildiruvchi"- jismoniy shaxsni qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishga yollagan yuridik yoki jismoniy shaxs, "sug'urta hodisasi" — sug'urtalangan shaxsning sog'lig'iga ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida zarar yetkazilganligi yoki uning vafot etganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan fakt bo'lib, u sug'urta to'voni to'lovlarini amalga oshirish bo'yicha sug'urtalovchining majburiyati vujudga kelishiga sabab bo'ladi"- kabi tushunchalar haqida ta'rif berilgan.<sup>2</sup>

Shuningdek, "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida" gi Qonunning 6-moddasiga ko'ra, sug'urta to'voni ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa, nogironlik pensiyasi hamda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tarzida to'lanadi. Ushbu moddaning so'nggi bandi sug'urta to'voni ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasining maqsadlari uchun sug'urtalovchi tomonidan to'plangan pul mablag'lari hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda to'lanishi tartibi haqida belgilangan. Agar sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa uning oila a'zolariga yoki dafn marosimini o'tkazishni o'z zimmasiga olgan shaxslarga qonunchilikda belgilangan tartibda va miqdorlarda to'lanadi. Shuningdek, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi tufayli xodim tirik qolib, ammo nogiron bo'lib qolgan taqdirda, unga nogironlik pensiyasi tayinlanadi. Bunda nogironlik pensiyasi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasb kasalligi oqibatida mehnat qobiliyatini qisman yoki to'liq yo'qotilganda tayinlanadi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida nogironlik pensiyasi ish stajidan qat'i nazar, tayinlanadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi vafot etgan sug'urtalangan shaxsning qaramog'idagi mehnatga layoqatsiz oila a'zolariga qonunchilikda belgilangan tartibda to'lanadi. Bunda yoshidan va mehnat layoqatidan qat'i nazar, farzandlarga, ota-onadan biriga yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singilga pensiya, agar ular vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lguniga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa, boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganligidan qat'i nazar, tayinlanadi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, shuningdek vafot etgan sug'urtalangan shaxsning qaramog'ida bo'lmagan ota-onasiga va eriga (xotiniga) ham, agar ular keyinchalik tirikchilik uchun zarur mablag'lar manбайдan mahrum bo'lib qolgan taqdirda ham to'linishi O'RQ-174-son Qonunining 12-modda 1 va 2- bandlarida belgilangan. Qayd

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi Qonuni 10.09.2008 yildagi O'RQ-174-son

etish joizki, agar ish beruvchining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urtalamagan bo'lsa, baxtsiz hodisani yashirishga urinadi. Bunning oldini olish uchun mehnatni muhofaza qilish sohasini ham raqamlashtirish kerak deb hisoblayman. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug'urtalashning asosiy maqsadi xodimlarni va ularning oilasini mehnat qilishga layoqatini yo'qotganda, nogironlikda ma'lum bir darajada (vaqtinchalik yoki doimiy) daromad bilan ta'minlash hamda jabrlangan ishchiga tibbiy va realibitatsion yordam berish hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urtaning bunday shakli: sug'urtalangan shaxslarning sug'urtalash masalalari borasida kafolatlanganligini; sug'urta sub'ektlarining mehnat qilish uchun yaratilgan sharoitlarni yaxshilash va mehnat xavfsizligi masalalari bilan iqtisodiy qiziqishi, ishlab chiqarishda jarohatlanish holatlari va kasb kasalliklari bilan og'rish darajasini pasaytirishni; sug'urtalovchilarning sug'urta badallarini to'lash majburiyatlarini; kasbiy riskning turidan kelib chiqqan holda sug'urta badallari miqdorlarini hisoblab chiqishni; ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan sug'urtalangan ishchilarni yollanma mehnatga jalb etayotgan barcha ish beruvchilarni sug'urtachilar sifatida ro'yxatga olish muhimligini aniqlab beradi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug'urtalash instituti sug'urtalangan shaxslarga kompensatsiya to'lovlari berish masalalaridan tashqari, shuningdek, ularga tibbiy va realibitatsion yordam ko'rsatish holatlarini ham qarab chiqadi. Bu kabi keng qamrovli himoya va profilaktik vazifalarni tashkil qilish ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug'urtalash institutlarining maqsadi hisoblanadi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy ijtimoiy sug'urtalash munosabatlarining sub'ektlari sug'urtalangan shaxslar (xodimlar), sug'urtalovchi va sug'urtalangan shaxslar, shuningdek, tibbiy va realibitatsiya tashkilotlari hisoblanishadi. Ko'pchilik iqtisodiy rivojlangan davlatlarda bu kabi ijtimoiy sug'urta institutlarini tashkil qilishning umumiy tamoyillari sug'urta badallarini faqat ish beruvchilar to'laydi, ularning ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklar yuz berishidagi ayblari o'zlari tomonidan tan olinishlari kerak hamda xech qanday sudlar yordamida uni isbotlash talab qilinmaydi, bundan tashqari sug'urta to'lovlarining miqdori kompensatsiya to'lovlariga, tibbiy va realibitatsiya xizmatlariga ketgan to'lovlar asosida aniqlanadi. Bu xizmatlarga ketgan xarajatlar biror muassasa, korxonaga yoki biror kasb ishchilari (dengizchilar, uchuvchilar, konchilar) guruhida o'rganilib, bir necha yillar (5 yil yoki undan ko'proq) davomida olingan statistik ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Bundakasbiy risklarning darajasi va kelitrib chiqaradigan og'ir oqibatlarini ham hisobga olish kerak bo'ladi.